

Toshkent shahrida oily ta'lim tizimi (2019-2020 o'quv yili boshida)

Bugungi kunda ta'lim inson faoliyatini barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlilikni oshirish, turmush darajasini ko'tarishning muhim shartiga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda yangi bilimlarni amalda qo'llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko'lmini tushuna oladigan kadrlarga talab yuqori. Bular nafaqat joriy xo'jalik va ishlab chiqarish masalalarini malakali hal qiladigan, balki to'g'ri qaror qabul qiladigan tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassislar bo'lishi lozim. Oliy ta'lim tizimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy mакtabning boshqa ta'lim muassasalarida) amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichga: Bakalavriat bosqichi-mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura bosqichi-aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.


2019-2020 o'quv yilida oliy ta'lim tashkilotlari faoliyati



Oliy ta'lim tizimida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 48 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 4 ta akademiya, 23 ta universitetlar va 2 ta oliy diniy ta'lim muassasalari hamda filiallari faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari Toshkent shahrida xalqaro Vestminster universiteti Amiti universiteti, Yodju texnika instituti, Puchon universiteti, G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Webster universiteti, I.M Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, Turin politexnika universiteti, INXA universiteti, Singapur menejmentni rivojlanitirish instituti, MMFI milliy tadqiqot yadro universiteti federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasining filiali, "MEI" milliy tadqiqot universiteti davlat byudjet oliy ta'lim muassasasining filiali mavjud.



2019-2020 o‘quv yilida oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilingan talabalarning taqsimlanishi, ming kishi



Oliy ta‘lim muassasalarida 2019-2020 o‘quv yili boshida jami 49,3 ming kishi talabalikka qabul qilindi, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davrida 37,9 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, 11,4 ming kishiga, yoki 23,1 % ga oshgan.

Oliy ta‘lim bakalavriat bosqichining asosiy ko‘rsatkichlari


2019-yilda bakalavr darajasiga ega bo‘lgan talabalar soni 22,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 5,6 ming nafari davlat grantlari asosida ta‘lim olgan. 2019-yilda bakalavriat bosqichini bitirganlarning 7,0 ming nafarini qizlar (31,5 %) tashkil etgan. 2020-yilda bakalavriatni 24,8 ming nafar talaba bitirishi kutilmoqda, ularning 5,5 ming nafari (22,3 %) davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalarni tashkil qiladi.

2019-2020 o‘quv yili boshiga oliy ta‘lim muassasalarida jami 147,2 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 57,2 ming nafarini qizlar tashkil etadi. Talabalarning 16,0 % i davlat grantlari asosida, 84,0 % i to‘lov-shartnoma asosida tahsil olmoqda.

Oliy ta'lif muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli

2019-2020 o'quv yili uchun magistraturaga jami 5467 nafar talaba qabul qilingan. Talabalardan, 41,8 % i (2287 nafari) davlat granti asosida, 58,1 % i (3180 nafari) to'lov shartnomasi asosida qabul qilingan. 2018-2019 o'quv yilida magistraturaga jami 3498 nafar qabul qilingan talabalardan, 24,4 % i (853 nafari) davlat granti asosida, 75,8 % i (2645 nafari) to'lov shartnomasi asosida qabul qilingan.

Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi, tumanlar kesimida % da



2019-2020 o'quv yili boshida oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishida qizlarning ulushi 38,8% ni, o'g'il bola talabalar ulushi 61,2 % ni tashkil etmoqda.




2019/2020 o'quv yili boshida talabalarning ta'limgan turlari bo'yicha taqsimlanishi



Mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'limgan turlarini barcha bo'g'ini, ayniqsa oliy ta'limgan tizimida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu jihatlar ta'limgan sifatini tubdan takomillashtirish oliy ta'limgan muassasalarida yoshlarning qamrovini tobora oshirish kabilarda o'zining yorqin ifodasini topmoqda. Toshkent shahri bo'yicha 48 ta oliy ta'limgan muassasalarida jami 147,2 ming nafar talabandan 130,2 ming nafari (88,4%) kunduzgi ta'limgan shaklida, 14,7 ming nafari (10,0%) sirtqi ta'limgan shaklida, 2,2 ming nafari (1,5%) kechki ta'limgan shaklida bo'yicha tahsil olmoqda.

Ta'limgan turlari bo'yicha taqsimot



Oliy ta'lim muassasalari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, kishi (2019-2020 o'quv yili boshida)

	Jami	Shu jumladan:								
		17 yosh va undan kichik	18 yosh	19 yosh	20 yosh	21 yosh	22 yosh	23 yosh	24 yosh	25 yosh va undan katta
Toshkent sh.	147283	2916	10802	17308	20474	20490	18425	14859	11697	30312

Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari orasida sog'gom raqobatni kuchaytirish asosiy vazifa hisoblanadi. Toshkent shahrining oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 17 yosh va undan kichik talabalar soni 2018/2019 o'quv yiliga nisbatan 2500 nafar talabaga oshgan, (85,7%). Bu ko'rsatkich 2018/2019 o'quv yilida 416 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, 25 yosh va undan katta talabalar soni 2018/2019 o'quv yiliga nisbatan 5286 (17,4%) nafar talabaga oshgan.



Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga qabul natijalari, kishi (2019-2020 o'quv yili uchun)

	Ta'limning barcha turlari			Kunduzgi ta'lim shakli		
	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa
Toshkent sh.	298817	43888	681	226563	37694	601

O'tgan o'quv yiliga nisbatan 100 ta o'ringa talabalar soni 174,7 nafarga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yoshlarning bilim olishiga yil sayin intilishlari kuchayotganini bildiradi.


(davomi)

	Sirtqi ta'lim shakli			Kechki ta'lim shakli		
	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa
Toshkent sh.	65647	4908	1338	6607	1286	514



2019-2020 o'quv yili boshida Toshkent shahri oliy ta'lim muassasalarida ta'limning barcha turlari bo'yicha bakalavriat bosqichiga jami abuturenlar tomonidan 298,8 mingta ariza topshirilgan bo'lib, 100 o'ringa 681 nafar kishini tashkil etgan.

2019-2020 o'quv yili boshiga oliy ta'lif muassasalarida professor-o'qituvchi xodimlarning ilmiy darajasi bo'yicha taqsimlanishi, kishi




2019-2020 o‘quv yili boshida Toshkent shahri oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar 11507 nafarni tashkil etadi.



Oliy ta’lim muassasalarining informatika va kompyuter texnologiyalari o‘qituvchilari soni

(2019/2020 o‘quv yili boshida)



2019-2020 o‘quv yili boshiga Toshkent shahri oliy ta‘lim muassasalarida bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 13 nafar talaba to‘g’ri keladi.



Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi

Tel: 71-203-88-27